



XALQ DEPUTATLARI MO'YNOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 29-fevral

VI-85-35-13-187-K/24

Mo'ynoq tumani

Mo'ynoq tumanini ishsizlik va korrupciyadan holi hududga aylantirish hamda sektorlar rahbarlari tomonidan mahallalarda ishlarni tashkil qilish chora- tadbirlari to'g'risida

Bugungi kunda Mo'ynoq tumanidagi **12** ta mahalla **997** nafar ishsiz fuqarolar (*shu jumladan, 732 nafar xotin-qizlar va 72 nafar yoshlar*) hamda mehnatga layoqatli **77** nafar nogironlar mavjud.

Shuningdek, joriy yilda Oliy ta'lim, kasb-hunar (kolledj) maktablari va umumtalim maktablarini **845** nafar oquvchilar (shundan, **363** nafar o'g'il bolalar va **482** nafar qizlar) bitirishi va mehnat bozoriga kirib kelishi kutilmoqda, harbiy xizmatdan qaytadiganlar esa **8** nafarni va migraciyadan qaytib kelganlar **539** nafarni tashkil etmoqda.

Tuman hokimligi, sektorlar tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda jami **1571** nafar ishsiz aholining bandligini taminlash boyicha sektorlar kesimida alohida dasturlar ishlab chiqildi. "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 6, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Mo'ynoq tumani Kengashi qaror qiladi:

1. Sektorlar rahbarlari B.Menglibekov, M.Orazbaev, R.Turg'anbaev, A.Raxmetullaevning 2023 yil mobaynida tumanni ishsizlik va korrupciyadan xoli hududga aylantirish hamda sektorlar tomonidan mahallalarda amalga oshirilgan ishlar haqidagi hisobotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Mo'ynoq tumani Kengashi deputatlari M.Abubakirov, J.Davletova, J.Urazbaevalarning quyidagi takliflari ijro uchun qabul qilinsin:

- "Tumanimizni ishsizlik va korrupciyadan holi hududga aylantirish - bizning bosh maqsadimiz" degan g'oya tumandagi barcha tashkilotlar, mahallalar va talim muassasalarida dasturilamal bolishi hamda bunda barcha deputatlar faol targ'ibotchi bolishi zarurligi;

sektorlar rahbarlari tomonidan aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi isho'rinlarini yaratish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupciyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish hamda ushbu yo'nalishda tumandagi barcha korxona va tashkilotlar, mahallalar, ta'lim muassasalarida targ'ibot tadbirlarini o'tkazishga alohida etibor qaratish;

mahalla raislari ko'pni ko'rgan nuroniylar bilan birgalikda o'z mahallasini ishsizlik va korrupciyadan holi hududga aylantirishda jamoatchilikning rolini yanada oshirish zarurligi.

3. Quyidagilar:

- 1-sektor (B.Menglibekov) hududida jami **278** nafar ishsizlar, shu jumladan **12** ta mahallada **278** nafar ishsiz fuqarolar (*shundan, 176 nafar xotin-qizlar va 20 nafar yoshlar*) hamda mehnatga layoqatli **27** nafar nogironlar, **293** nafar bitiruvchilari (*shundan, 126 nafar o'g'il bolalar va 167 nafar qizlar*), harbiy xizmatdan qaytadiganlar **3** nafarni va migraciyadan qaytib kelganlar **187** nafarni;

- 2-sektor (M.Orazbaev) hududida jami **238** nafar ishsizlar, shu jumladan **12** ta mahallada **238** nafar ishsiz fuqarolar (*shundan, 141 nafar xotin-qizlar va 21 nafar yoshlar*) hamda mehnatga layoqatli **15** nafar nogironlar, **167** nafar bitiruvchilari (*shundan, 72 nafar o'g'il bolalar va 95 nafar qizlar*), harbiy xizmatdan qaytadiganlar **2** nafarni va migraciyada qaytib kelganlar **106** nafarni;

- 3-sektor (R.Turg'anbaev) hududida jami **319** nafar ishsizlar, shu jumladan **12** ta mahallada **319** nafar ishsiz fuqarolar (*shundan, 139 nafar xotin-qizlar va 18 nafar yoshlar*) hamda mehnatga layoqatli **22** nafar nogironlar, **244** nafar bitiruvchilari (*shundan, 105 nafar o'g'il bolalar va 139 nafar qizlar*), harbiy xizmatdan qaytadiganlar **2** nafarni va migraciyada qaytib kelganlar **155** nafarni;

- 4-sektor (A.Raxmetullaev) hududida jami **162** nafar ishsizlar, shu jumladan **12** ta mahallada **162** nafar ishsiz fuqarolar (*shundan, 83 nafar xotin-qizlar va 14 nafar yoshlar*) hamda mehnatga layoqatli **13** nafar nogironlar, **142** nafar bitiruvchilari (*shundan, 61 nafar o'g'il bolalar va 81 nafar qizlar*), harbiy xizmatdan qaytadiganlar **1** nafarni va migraciyada qaytib kelganlar **90** nafarni tashkil etishi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. 2024 yil mobaynida tumandagi har bir sektor hududidagi aholi bandligini taminlash boyicha manzilli dasturlar 1-4-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin hamda sektorlar rahbarlari muntazam ravishda tumanni ishsizlik va korrupciyadan xoli hududga aylantirish, mahallalarda tizimli ishlarni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni oz vaqtida va tizimli amalga oshirishlari belgilab qoyilsin.

5. Sektorlar rahbarlari B.Menglibekov, M.Orazbaev, R.Turg'anbaev, A.Raxmetullaev:

uch kun muddatda tumanni ishsizlik va korrupciyadan xoli hududga aylantirishda natijadorlikka erishishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni belgilasin.

Bunda aholi bandligini taminlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish orinlarini yaratish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupciyani oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar bilan bir qatorda, ushbu yonalishlarda korxona va tashkilotlar, mahallalar, talim muassasalarida tarqibot tadbirlarini otkazishga alohida etibor qaratilishi inobatga olinsin;

har kuni hududdagi mahallalarda "ettilik" faoliyatini muvofiqlashtirish va amaliy komaklashib borish hamda mahalla raislari bilan ozaro axborot almashish, muammolarini eshitish va hal etish choralari korib borsin;

bir kun muddatda mutasaddi tashkilotlar va mahallalardagi "ettilik" bilan birgalikda sektorlar hududidagi har bir mahallada aholi bandligini taminlash boyicha manzilli dasturlar ishlab chiqilishini va ijroga qaratilishini taminlasin;

uch kun muddatda har bir sektor boyicha tasdiqlangan aholi bandligini taminlash manzilli dasturlarning bajarilishi yuzasidan oylik va choraklik reja-grafiklar "mahallabay" ishlab chiqsin;

har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashiga aholi bandligini taminlash boyicha manzilli dasturlar bajarilishi holati to'g'risida hisobotlar taqdim etib borsin;

har chorakda O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo'limi (S.Rasbergenov) bilan birgalikda sektorlar hududidagi har bir mahallada aholi bandligini taminlash boyicha manzilli dasturlarning bajarilishi yuzasidan "mahalla ettiligi" azolarining aholiga hisobotlar taqdim etilishini tashkillashtirsin.

6. Tuman hokimining orinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i B.Jamalova O'zbekiston mahallalari uyushmasining tuman bo'limi (S.Rasbergenov), "Nuroniylar jamoasi"ning tuman bolimi (A.Tlewov) bilan birgalikda:

muntazam ravishda tumandagi 12 ta mahallaning barchasida aholi ortasida "boqimandlik" kayfiyatiga berilishini oldini olish, "boqimandalik – oziga dushman ekanligi"ni tushuntirish boyicha targ'ibot tadbirlarini hamda bunday holatga tushib qolgan fuqarolarga nisbatan jamoatchilik tasirini korsatish ishlarini tashkil etib borsin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Mo'ynoq tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investiciyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boyicha doimiy komissiya (M.Abubakirov) hamda Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari boyicha doimiy komissiya (J.Davletova) hamda Sud-huquq masalalari va korrupciyaga qarshi kurashish boyicha doimiy komissiya (J.Urazbaeva) zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror rasmiy qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi



MENGLIBEKOV
BAXTIYAR
BEKMURZAYEVICH